

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA RUHIY FAOLIYAT

Amonova Gulruh Qahramonovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahri
7-DMTT direktor o'rinbosari

Anotatsiya. Ushbu maqolada maktab yosh davrida ruhiy faollikni shakllantirishning psixologik muammolari haqida bayon etilgan ya'ni maqolamning qisqacha mazmuni shundan iboratki, boladagi ruhiy faollik holatlari, psixologik jihatdan muammoli vaziyatlarni yuzaga kelishi, boladagi ruhiy faollikni shakllantirish bosqichlari hamda maqola mavzusiga doir bo'lgan olimlarning fikrlari berib o'tildi.

Kalit so'zlar. maktabgacha yosh davri psixologiyasi, ruhiy faoliyat, psixik rivojlanish va sotsiogenetika.

O'zbekiston Respublikasi XXI - asrda ta'lim tarbiyani rivojlantirishda ulkan islohatlar olib borilmoqda, ta'limning har bir bosqichida ta'lim oluvchilarning manfaatlari uchun ularning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida jadal rivojlanish bosqichlari shakllantirilmoqda. Hozirgi kunda texnologiyalarning jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgani nafaqat jamiyat hayoti balki o'sib kelayotgan avlod tarbiyasida o'z tas'irini o'tkazmasdan qolmayapti. Voyaga yetayotgan bolalar o'rtasida psixologik inqiroz bilan bog'liq qiyin vaziyatlar xam yuzaga kelmoqda. Albatta bunday holatlar bola shaxsining jismoniy, ruhiy aqliy rivojlanishiga keskin ta'sir etishi mumkin. Bu kabi noxush holatlar yuzaga kelishining oldini olish uchun, avvalo, bolaning ruhiy xususiyatlari rivojlanish mexanizimini metodologik jixatdan tushinib olish lozim. Bunda ikki omil, ya'ni tabiiy va ijtimoiy omillarni nazarda tutish kerak. Chunki shaxs aynan mazkur omillar ta'sirida kamol topadi. Ular shaxsning shakllanishida uziga xos tarzda yuz beradi. Boshqacha aytganda, inson taraqqiyoti bir tekis kechmaganidek bolada uziga xos ruhiy zuriqish tanglik xolatlari uchrab turishi tabiiy. Ruhiy xolatlar esa bola shaxsining keyingi taraqqiyoti uchun asosiy ta'sir kursatuvchi voqeilik sanaladi. Shu nuqtai nazardan oladigan bilsak, shaxs ichki dunyosida tanglik xolatining yuzaga kelish sabablari, mexanizimlari, omillirini aniqlash xamda uning inson taraqqiyotidagi o'rnini baxolash muammoning nechog'li dolzarbliligini belgilib beradi. Inqiroz, ya'ni «krizis» so'zi yunoncha «krisis» atamsidan olingan bo'lib, «burilish nuqtasi», «natija», ziddiyatli, keskin o'zgarishlarining og'ir o'tish davri sifatida talqin etiladi. Shaxs psixologik inkirozi esa tashqi ta'sirlar natijasida ichki emotsional xolatning buzilishi bilan bog'liq jarayondir. Shu bois yosh inkirozi yangi yosh bosqichiga utishda yangi sifat xususiyatlarining paydo bulishi va mavjudlarining o'zgarishlar bilan tavsiflanadigan nazariy tushuncha sifatida ko'rsatiladi. Xozirga qadar insonlarda kechadigan bunday ruhiy inqirozlar bir necha ruhshunoslar ishlarida keng talqin etilgan. Jumladan L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola ruhiyati taraqqiyotida

barqaror davrlar inqirozli davrlari bilan almashinib turadi. Inqirozlar bolaning ikki yoshlik davri tutashgan joyda uning xulk atvoridagi eski hussiyatlar yuqolib, yangilari shakllana boshlashi bilan yuzaga keladi. SHu sababli L.S.Vigotskiy maktabgacha tarbiya yoshdagi inqirozni «etti yosh inkirozi» deb atagan xamda uning bu davrda bolaning xarakteri va xulk atvoridagi noaniq o'zgarishlarni yuzaga keltirishini ta'kidlagan. Bolaning bunday xulq atvori undagi bolalarcha soddalikning yo'qolishiga olib keladi. Mazkur davrdagi inqiroz belgilari sifatida jaraxotlovchi kechinmalardan ximoya kilish funktsiyasini bajaradigan bolalarcha tantilik g'ayri tabiy xarakatlar (masalan sababsiz janjal qilishi) yoki uning masxarobozligida namoyon bo'ladi. Bolada jismoniy rivojlanish bilan birga shaxs xususiyatlari, intizom, javobgarlik, ma'suliyat va atrofdagilarga bo'lgan hurmat kabi tuyg'ular shakllana boshlaydi. Rivojlanish jarayonida bilim va harakat usullarining o'zgarishi murakablashishi sodir bo'lmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlar va shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish dinamikasiga quyidagilarni kiritsak mubolag'a bo'lmaydi birinchidan bola shaxsini yo'naltirishdagi umumiy xususiyatlar, anglash, insonlar bilan munosabat o'rnatish ikkinchisi esa faoliyatining psixologik tuzilishi va xususiyatlariga motiv va maqsad vazifalari kiradi desak mubolag'a bo'lmaydi va uchunchisi esa anglash mexanizimining rivojlanish darajasi. Bundan ko'rinib turibdiki bolaning butun rivojlanish jarayonini uch qismga bo'lish mumkin ekan deb hisoblayman birinchidan ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, ikkinchidan egallangan usullarni tatbiq etish mexanizmlarining psixologik rivojlanishi hisoblanadi uchunchidan shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishi anglash fikirlash va boshqalar kiradi ko'rsatilgan rivojlanish yo'llarining har biri o'ziga xos xususiyatlari mavjud hisoblanadi. Bu yo'llarning barchasi o'zaro bog'liqlik va faqat birgalikdagina psixik rivojlanish deb hisoblasak bunda shaxsdagi o'zgarishlar jarayonini tashkil etadi ya'ni psixik rivojlanish bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabatni qonunlarini o'rganish bilan bir qatorda yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biri sanaladi shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayondir uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartlatidan biri sanaladi.

Maktabgacha yoshida bola jismoniy jixatdan aloxida mustakil individ sifatida o'zini o'zi anglashidan o'z xis tuygulari va kechinmalarni anglab yetishigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu kechinmalar eng avvalo aniq faoliyat bilan bog'lik bulib: «Men juda xam yaxshi rasm chizaman», «Men kimningdir yordamida sakray olaman!», «Men chaqqon epchilman», «Men shunday qo'polmanki, quvlashmochoqda doimo qoqilib turtunib yuraman» kabi quvonch va «iztirob»larda xam namoyon bo'ladi. Bola o'zining his tuyg'ulari va kechinmalariga e'tibor bera boshlaydi, o'zida kechadigan

kechinmalarni ummulashtirish orqali munosabatda bo'ladi. Lekin bular inqiroz davri boshlanishining yagona belgilari emas. Uning boshqa yangi xulk atvor tavsiflari, ayniqsa uy sharoitida yaxshiroq ko'rinadi. U tavsiflarni quydagicha tartiblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". O'zbekiston -2017
2. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". T.:Fan va texnologiyalar 2013-343 bet
3. G.B Shoumarov va boshqalar. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. Toshkent. "Mehnat". 2010 yil.